

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanib
ta’lim tarbiya jarayonlarini tashkil etish**

**JDFU maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarda masofaviy ta’lim
fakulteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1- kurs talabasi Xazratova Tursinoy.
maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarda masofaviy ta’lim kafedrasida stajyor
o‘qituvchisi Xamzayeva N**

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanib ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etish va uning ta’lim tarbiya jarayoniga samarali tasiri haqida bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Annotation: This article is about the organization of the educational process using digital technologies in preschool educational organizations and its effective impact on the educational process, and serves as a guide for educators of preschool educational organizations.

Аннотация: Данная статья посвящена организации образовательного процесса с использованием цифровых технологий в дошкольных образовательных организациях и ее эффективному влиянию на образовательный процесс и служит руководством для воспитателей дошкольных образовательных организаций.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, ta’lim tarbiya, rivojlanish, bolalar, kompyuter, monitor, televizor.

Ключевые слова: цифровые технологии, образование, развитие, дети, компьютер, монитор, телевидение.

Key words: digital technology, education, development, children, computer, monitor, television.

KIRISH. “Har bir soha raqamli texnologiyalar bilan hamohang bo‘lmasa, mamlakat rivojlanmaydi” — deya takidlab o‘tganlar davlatimiz rahbari

SH.Mirziyoyev. Prezident bu tizim rahbarlarning ongi va mas’uliyatini o‘zgartirganini ta’kidlab, hujjatlar integratsiyasi va sifatini yaxshilash, ijro intizomi nazoratini kuchaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etadi. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) iboralari kundalik turmushda eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki hayotning qaysi sohasini olmaylik, qanday amallarni bajarmaylik, albatta, AKT bilan ish ko‘ramiz. Zamonaviy AKTdan foydalanish, axborot almashish, ularni uzatish, o‘zlashtirish inson faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari juda keng tizim bo‘lib, unga ma’lum bo‘lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari, Internet kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma’lumotlar ombori, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, bilimlar ombori kabilar misol bo‘lishi mumkin. “XXI asr - axborotlashtirish asri”da ta’lim sohasiga elektron ta’limni joriy etish, har bir ta’lim muassasasida: - o‘qitish va o‘qish jarayonining; - ta’lim muassasasi boshqarilishining; - ta’lim muassasasi bo‘linmalarining; -ta’lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi. Axborot texnologiyasining maqsadi – inson tomonidan tahlil qilish va uning asosida qandaydir xatti-harakatni bajarish bo‘yicha qaror qabul qilish uchun axborot ishlab chiqarish. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;
- o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga;
- o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabanning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;
- sun‘iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabanning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashiga;

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 01. January 2025

- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;

- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, ushbu ta'lim vositasining didaktik imkoniyatlariga ob'ektning tabiiy jihatlari, texnik va texnologik fazilatlari, o'quv va tarbiyaviy jarayonida didaktik maqsadlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan aspektlari sifatida qaralishi mumkin. AKTning tasniflanishiga mos ravishda didaktik imkoniyatlarini uchta guruhga ajratish mumkin:

1. O'quv ma'lumotlarini taqdim etish.
2. O'quv ma'lumotlarini uzatish.
3. O'quv jarayonini tashkil etish.

O'quv ma'lumotlarini taqdim etish va AKTlarning didaktik imkoniyatlari: - axborotlarni ta'limga oid elektron resurslar orqali matn, grafika, audio, video, animatsion formatda ko'rsatish va uzatish; - qiziqtiruvchi ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyati; - qabul qilingan bilimlar asosida ko'nikmalarni mustahkamlash va ko'nikmalarni amalda qo'llash imkoniyati; - o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy axborotlarni tayyorlash, tartibga solish va ishlov berish; - axborotni saqlash va yig'ish; - axborotni tizimlashtirish. O'quv ma'lumotlarini uzatish AKTlarning didaktik imkoniyatlari: - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida axborotlarni turli shakllarda tarqatish; - ma'lumotlardan keng foydalanishni ta'minlash; - qiziqtiruvchi ma'lumotlarni olish uchun biron-bir elektron ma'lumotlar bankiga va maqsadli o'quv ma'lumotlar bazalariga ulanish imkoniyati; - turli xil axborot tashuvchi vositalardan ma'lumotlarni yuklash; - kurs o'qituvchisi bilan muloqotni tashkil etish; - bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchilarga xabarlarini yuborish; - o'qituvchi va talabalar o'rtasida asinxron ma'lumot almashish (matn, grafik, audio). - konsultatsiyalar, nazorat qilish va hokazolarni tashkil etish imkoniyati. Ta'limni axborotlashtirishning markaziy masalalaridan biri o'quvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasini shakllantirishdir. Raqamli texnologiyalarni innovatsion joriy etish orqali o'qitish amaliyotini barcha bosqichlarda o'zgartirish an'anaviy ta'limning sezilarli yaxshilanishiga va sifat jihatidan yangi natijalarni shakllantirishga, har bir talaba salohiyatini rivojlantirishga olib kelishi mumkin. Aynan mana shunday transformatsiyalar ta'limning raqamli transformatsiyasining ajralmas qismi

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 01. January 2025

hisoblanadi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalardan foydalanish va ulardan o‘quv jarayonida faol foydalanish jadal sur‘atlar bilan kengayib borayotganiga qaramay, ular bilan to‘yingan muhitda murakkab muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladiganlar soni o‘qitilganlarning faqat kichik qismini tashkil etadi, ammo so‘nggi paytlarda yillar davomida ularning soni ortib bormoqda. Ta‘lim tizimi ishini shunday o‘zgartirish kerakki, ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining umumiy savodxonligi va nostandart masalalarni yechish qobiliyati zamonaviy intellektual kompyuter tizimlarinikidan yuqori bo‘lsin. O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘z ta‘limini qo‘llab-quvvatlash uchun texnologiyadan qanday qilib to‘g‘ri foydalanishni, o‘quv maqsadlari uchun ushbu texnologik vositalar va qurilmalar bilan qanday o‘zaro aloqada bo‘lishni ko‘rsatishlari kerak, shunda bunday bitiruvchilar soni ko‘payadi va yangi raqamli bo‘linish torayadi. Ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- berilayotgan materialni chuqur va mukammal o‘zlashtirish imkoniyati va uni ta‘lim oluvchi xotirasida uzoq muddat saqlanishi va zarur bo‘lganda amaliyotga qo‘llash darajasi ortadi;

- axborotni turli shaklda (matn, video, ovoz, grafika, animatsiya ,...) berilishi ta‘lim oluvchilarni diqqatini tortadi va ularni fanga qiziqishini uyg‘otadi;

- kompyuter “nazoratchi” funksiyasini bajarib ta‘lim oluvchining didaktik topshiriqlar, test savollari, muammoli vaziyatlarga bergan javoblarini, ya‘ni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlab natijalarini monitorda ko‘rsatadi;

- dars jarayonida ta‘lim oluvchilar faoliyatini boshqaruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi va bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar soni keskin ortadi, buning natijasida egallanishi lozim bo‘lgan bilimlar hajmining oshishiga olib keladi;

- o‘quv mashg‘ulotining tarkibiy tuzilishini modifikatsiyalash, ya‘ni o‘qituvchi tomonidan bajarilayotgan ko‘pgina tashkiliy ishlarni kompyuter texnikasi yordamida amalga oshirilib vaqt tanqisligi muammosi kamayadi;

- Ta‘lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanib, mustaqil ta‘lim olish imkoniyati sohalari kengayadi va o‘qituvchi bilan erkin hamda teng muloqotga kirisha oladigan hamkorga aylanadi. Maktabgacha ta‘lim muassasasi va uning tashqarisida kengaytirilgan ta‘lim berishda, jumladan bolalarning nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashda texnologiyalarning imkoniyatlari har qanday vaqtda va istalgan vaqtda qo‘llab - quvvatlanishi va rag‘batlantirilishi mumkin. Bolalarning taraqqiyotini baholash va kuzatishga yordam beradigan ta‘limga yanada yaxlit yondashuv sanaladi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 01. January 2025

Raqamli texnologiyalardan foydalanib, turli xil raqamli yechimlar bo'lishi mumkin. Tarbiyachi va bola o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, o'quv jarayonini o'zgartirish, bolalar nutqi va tilini tuzatish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish maktabgacha ta'lim muassasasida ishlash o'quv jarayonida ta'limni, ma'lum ko'nikma va malakalarni egallashni rag'batlantiradi. Texnologiya bolalarga bilim olishga yordam beradimi, degan savol tug'iladi? MTM larda texnologiya orqali bunga qanday erishish mumkinligi haqidagi savolli muloqot va hamkorlik, meta-kompetentsiyalar va ijodkorlikka asoslanadi. Raqamli texnologiyalar yordamida rivojlanishi mumkin bo'lgan bolalarning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda turli dasturlar yoki raqamli o'yinlardan foydalaniladi. Tengdoshlari, shuningdek, bolalar uchun mos dasturiy ta'minotga ega maktabgacha ta'lim muassasalarida nutq va tilni tuzatish ishlarida texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, albatta, yaratilishi kerak. Pedagogik texnologiyani loyihalashtirishda bolaning individual hamda yosh xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, MTTlarda nutq o'stirish mashg'ulotini olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, olib borilayotgan mashg'ulotlarni, berilayotgan bilimlarni tushunarli va soda yetkazish yo'llarini loyihalashtirilgan pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish muhimdir. Buning uchun avvalo, tarbiyachi berilayotgan mazmunga mos metod, shakl, texnik jihozlar, o'yinlar hamda kutiladigan natijani oldindan rejalashtirmo'g'i lozim. Ma'lumki, bugungi kunda bolalar “texnika asri”da ulg'aymoqdalar. Bolalarning talabi bo'yicha mashg'ulotlarni loyihalashtirmoq juda muhimdir. Ayniqsa, ular uchun qiziqarli tarzda tayyorlangan multimedia dasturlarining mavzuga moslarini tizimli modulini yaratish, soddadan murakkabga, izchil, ketma-ket tashkil etish, har bir mashg'ulotga doir multimedialarni qo'llash tarbiyachidan ijodkorlik, izlanish hamda mas'uliyat bilan har bir mashg'ulotga yondashishni talab etadi. Albatta bunda, pedagogning diqqat markazida o'zining maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intilayotgan, yangi tajribasinozlarni qabul qila oladigan va hayotning har xil holatlarida mustaqil, ongli va mas'uliyat bilan qaror qabul qilishga qodir bo'lgan butun bir bola shaxsi turmog'i lozim. Bolaga ijtimoiy normalar asosida bilim beruvchi an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli o'laroq bolaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida yuqorida qayd qilingan yo'nalish(sifat)larni bola tomonidan zabt etilishi tarbiyaning asosiy maqsadi qilib qo'yiladi.

1. Yuldashev U., Mamarajabov M., Tursunov S. Pedagogik Web-dizayn. O‘quv qo‘llanma – T.: “Voriz”, 2013.
2. Aripov M., Fayziyeva M., Dottoyev S. Web-texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.; “Faylasuflar jamiyati”, 2013
3. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol metodlardan foydalanish
4. Ismoilov Qahramon. (2023). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING VALIY ZOTLARGA MUNOSABATI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS, 1(11.02), 345–347. Retrieved from <https://www.myscience.uz/index.php/issue/article/view/228>

**Research Science and
Innovation House**